Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga qo'shilgan tarzda quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar vujudga kelgan. 1868 yilda Buxoro amirligiga qarashli bosib olingan yerlarda Zarafshon okrugi (markazi-Samarqand) 1874-yilda Amudaryo bo'limi (markazi- Petro-Aleksandroviski hozirgi To'rtkul), 1876-yilda Farg'ona viloyati (markazi- Yangi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev, hozirgi Farg'ona shahri) tashkil qilingan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi olib borgan harbiy harakatlari natijasida mustamlakaga aylantirilgan hududlar kengayib borgan. Jumladan, 1867-yilda, Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori K.P. Fon Kaufman davrida uning hududi 15,270 kv.mil [21] bo'lgan bo'lsa, 1868-yilda 200 kv.mil maydonga ega Zarafshon okrugi yerlari, 1870-yilda 266 kv.mil maydonga ega Zarafshon daryosining yuqori qirg'og'idagi bekliklar hududi, 1871-yilda 1,224 kv.mil maydonga ega G'ulcha (G'ulcha) 1873-yil 1,920 kv.mil maydonga ega Xiva xonligiga qarashli bo'lgan yerlar, 1875-1876 yillarda Qo'qon xonligining 1770 kv.mil yerlaridan iborat jami 5,380 kv.mil bo'lgan bosqinchilik yo'li bilan qo'shib olingan. Keyinchalik bosib olingan yerlar bilan Turkiston general-gubernatorligi hududi 20,650 kv. mil ni tashkil etdi. Aholisi esa Fon K.P. Kaufman hukmronligining boshida 1060000 kishi bo'lgan bo'lsa, uning hukmronligi oxirida 3 mln kishiga yetgan (G'ulcha aholisidan tashqari) Turkistondagi rus aholi esa 24 ming kishidan 65 ming kishiga yetgan (harbiy qo'shinlardan tashqari) [22].

Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi kirgan viloyatlarni harbiy gubernatorlar boshqargan. Kavkazorti viloyatini viloyat boshlig'i (nachalnik), Amudaryo bo'limini bo'lim boshlig'i boshqarib, u orqali Rossiyaning Xiva xonligi bilan munosabatlari olib borilgan. Shuning uchun Amudaryo bo'limi boshlig'iga uyezd boshliqlariga qaraganda qayta huquqlar kiritilgan. Pomirni viloyat harbiy gubernatoriga to'g'ridan-to'g'ridan bo'ysunuvchi pomir otryadi boshlig'i boshqargan. Viloyat uyezdlarini rus harbiy ofitserlar boshqargan. Uyezdlar viloyatlar, oqsoqolliklar va ovullarga bo'lingan [23].

Har bir bosib olingan yerlarda imperiyaning ma'muriy hududiy birlashmalari, harbiy, ma'muriy, boshqaruv institutlari tashkil qilinib borilgan. 1867-yil 4-dekabrda Sirdaryo viloyati, 1898-yil 19-fevralda Yettisuv viloyati boshqarmalari tashkil qilinadi.

Turkiston general-gubernatorligi XIX asr oxirida ma'muriy jihatdan Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Kaspiy, Farg'ona viloyatlari va Amudaryo bo'limlaridan iborat bo'lgan. Viloyat uyezdlarga Zarafshon okrugi bo'limlarga, Amudaryo bo'limi esa uchastkalarga bo'lingan.

Sirdaryo viloyati 6 uyezdga va Amudaryo bo'limiga bo'lingan. Avliyoota uyezd maydoni 67800 kv. verst[24], Kazalinsk (kazoli)uezdi 59500 kv. verst, Kuraminsk (qurama) uezdi 32100

verst, Perovsk uezd-65950 kv verst, Turkiston uyezdi 79550 kv verst, Chimkent uyezdi 51250 kv. verst, jami-356 150 kv verst bo'lgan [25].

Sirdaryo viloyatining aholisi 1084985 kishidan iborat bo'lib, unda ruslar 15000 kishini o'troq aholi 426600 kishini, ko'chmanchi aholi 658385 kishini tashkil qilgan [26]. Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligi markazi sifatida aholida ma'muriy birlikka ajratilgan.

Turkistonda ma'muriy boshqaruv bo'yicha turli tartib-qoidalar joriy qilib borilib, ularning ko'pchiligi sinab-tajriba ko'rinishida vaqtincha tatbiq qilingan. Ko'plab tartiblar o'zini oqlamagani uchun qisqa vaqt amal qilgach, bekor qilib borilgan. Turkiston o'lkasidagi joriy qilingan bunday sinov-tajriba ko'rinishidagi tartib-qoidalarining aksariyatini muallifi Turkiston o'lkasini general-gubernatori Fon K.P. Kaufman bo'lgan. Fon K.P. Kaufman Rossiya imperiyasining Turkiston mustamlakachilik siyosatining bir vaqtning o'zida ham nazariy asoschisi, ham amaliy ijrochisi hisoblangan. Chunki unga o'lkada olib boradigan faoliyat bo'yicha katta huquqlar berilgan edi. Fon K.P. Kaufman bu huquqlaridan o'z hukmronligi davrida juda ham "unumli" va keragidan ham ortiq darajada foydalangan. Bundan tashqari fon K.P. Kaufman o'lkada "Nizom" loyihalarida umuman ko'rsatilmagan tartiblarni ham joriy qilgan. Jumladan Qurama va Xo'jand uездlarida "Nizom" da ko'rsatilmagan xo'jalik boshqaruvlarini tashkil qiladi [32]. Ushbu xo'jalik boshqaruvlari o'zida bir necha viloyatlarni birlashtirgan. Lekin, tashkil qilingan bunday xo'jalik boshqaruvlari bir oz vaqt o'tgach suiiste'molchilik ko'payib ketgani uchun deb, aniqrog'i sinovdan o'tmaganligi sababli 1877-yilda tugatilib uning faoliyati uyezd va boshqaruviga qo'shib yuboriladi.

K.P. Fon Kaufman tomonidan Turkiston general-gubernatorligi uzoq yillar davomida 1867-yilgi qonun ko'rsatmasiga ega bo'lmagan "Nizom" loyihasi tartiblari asosida boshqarilgan. Bunga asosiy sabab ushbu tartiblar Turkistonda K.P. Fon Kaufman uchun o'lkada to'liq hukmronlik qilishiga imperiya manfaatlarini himoya qilishiga to'liq javob berganligidir. Shuning uchun ham "yarim podsho" nomini olgan K.P. Fon Kaufman "Nizom" loyihasida belgilangan huquqlarning cheklanishini doimiy qonun ko'rinishidagi "Nizom" Tayyorlanib tasdiqlanishiga shoshilmagan, aniqrog'i xohlamagan.

1868-yilda Ministrlar kengashi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi 2 yil ichida yangi "Nizom" loyihasini tayyorlab taqdim qilinishi to'g'risida ko'rsatma berilgan [33]. Nihoyat, 1871-yilda K.P. Fon Kaufman rahbarligida Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida "Nizom" loyihasi tayyorlanadi. Biroq vazirlar kengashida bo'lib o'tgan muhokamada general-gubernatorga katta huquqlar berib yuborilgan deb ushbu loyiha tasdiqlanmaydi. 1873 yilda "Nizom" loyihasi qayta ishlab chiqilib, vazirlar muhokamasiga taqdim etiladi. Loyiha Rossiya ichki ishlar vazirligi huzurida tashkil qilingan komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, unda kamchiliklar mavjudligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari "Moliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va Davlat nazorati tomonidan ushbu "Nizom" loyihasi qoniqarsiz, yer masalasi tartiblari esa siyosiy jihatdan xavfli [34] deb ko'rsatiladi. Bu loyiha ham 1874-yilda tasdiqlanmasdan qaytarib yuboriladi. Lekin shunga qaramasdan, Ministrlar Kengashi tomonidan kamchiliklar mavjudligi sababli tasdiqlanmasdan qaytarilgan ushbu "Nizom" loyihasidagi tartiblar 1876-yilda tashkil qilingan Farg'ona viloyatida joriy qilinadi.

Turkiston o'lkasida taftish olib borgan F.K. Girs 1873- yilgi "Nizom" loyihasi bo'yicha soliq tartiblari markaziy muassasalar tomonidan ma'qullanmagan va hukumat tomonidan tasdiqlanmagan holda joriy qilingan [35] deydi.

1881-yilda Harbiy vazirlik tomonidan Turkiston o'lkasi boshqaruvi bo'yicha yangi "Nizom" loyihasini taqdim etish talab qilinadi [36]. Biroq yangi "Nizom" loyihasini tayyorlash K.P. Kaufman vafot etganligi uchun uni o'rniga general-gubernator (1881-1882) qilib tayinlangan G.A. Kolpakovskiy zimmasiga tushadi.

G.A. Kolpakovskiy general-gubernator qilib tayinlangan yilning o'zida hisob bo'yicha uchinchi "Nizom" loyihasini tayyorlaydi. Ushbu "Nizom" loyihasi asosan K.P. Kaufman rahbarligida tayyorlangan 1873-yildagi "Nizom" loyihasi qoidalari asosida ishlab chiqiladi. Podsho hukumati tomonidan mazkur "Nizom" loyihasi general-adyutant M.V. Skobelev boshchiligidagi tashkil etilgan komissiya ko'rib chiqishi uchun topshiriladi. Biroq 1882-yilda M.V. Skobelevning to'saddan sirli ravishda vafot etishi oqibatida "Nizom" loyihasini ko'rib chiqish ishlari oxiriga yetmay qoladi [37]. 1882-yil iyulda T.A. Kolpakovskiy Dasht general-gubernatorligiga general-gubernator qilib tayinlanadi. Turkiston general-gubernatorligi lavozimiga esa M.G. Chernyaev[38] tayinlanadi.

"Turkistanskiy kurer" gazetasida e'lon qilingan "Turkistonni zabt etgan M.G. Chernyaev qizi bilan suhbat" nomli maqolasida "Imperator Aleksandr III taxtga o'tirgandan keyin shaxsan o'zi M.G. Chernyaev Turkiston general-gubernatori qilib tayinlangan" [39] deb ko'rsatiladi.

Turkiston o'lkasiga general-gubernator qilib, tayinlanganda K.P. Fon Kaufman zimmasiga "O'lkada boshqaruv tartiblarini o'rnatish, soliqlarni joriy qilish, aloqa tarmoqlarini qurish, mahalliy boshqaruv tizimini tashkil qilishdan iborat tashkiliy vazifa; o'lkada "Nizom" loyihasi bo'yicha ma'muriy sud-moliya tartiblarini o'rnatib, tashkilot va mansabdor shaxslarning olib boradigan faoliyatlari aniq belgilashdan iborat ijroiylar vazifalar yuklatilgan edi. K.P. Fon Kaufman o'z hukmronligi davrida o'ziga berilgan o'lkada kerak va zarur deb hisoblangan ishlarni bajarish huquqidan foydalangan holda tashkiliy vazifasini amalga oshirishda belgilangan ishlarni olib borgan va bunda juda ko'plab xato-kamchiliklarga yo'l qo'ygan. Lekin K.P. Kaufmanning ikkinchi bosqichdagi ijro etish vazifasini bajarishdagi yo'l qo'ygan kamchilik va xatolari taftish komissiyasi tomonidan to'liq tekshirilishi lozimligi[41] F.K. Girs tomonidan ko'rsatiladi. F.K.Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi Turkiston o'lkasining ko'plab uyezdlarida bo'lib joylardagi ahvol bilan shaxsan o'zi yoki taftish guruhi a'zolari tanishib chiqqan. Aholi o'rtasida suhbatlar o'tkazilib, ularning takliflari o'rganilgan. Komissiya tarkibida ichki ishlar vazirligidan Galdinskiy Rossiya imperatorining Qashg'ardagi konsuli Petrovskiy, Bojxona departamenti vakili Yezuchevskiy, Novgorod sudi prokurori Ditlov kabi turli soha vakillari bo'lgan[42]. F.K.Girs komissiyasi taftish ishlari yakunida ma'muriy boshqaruv, sud va moliya kabi uch qismdan iborat hisobot tayyorlagan. Komissiya tomonidan tayyorlangan taftish xisobotida "o'lkada qonun ko'rinishida bo'lgan 4 ta "Nizom" loyihalariga tegishli tartib- qoidalarga amal qilingan"[43] ligi ko'rsatiladi. Jumladan Sirdaryo viloyatida 1867-yil 11-iyuldagi "Dasht komissiyasi" tayyorlagan "Nizom" loyihasi bo'yicha ish olib borilgan. Zarafshon okrugida esa K.P. Fon Kaufman tomonidan 1868 yilda tayyorlangan va keyin bir necha marotaba o'zgartirishlar kiritilgan vaqtinchalik qoidalar asosida, Amudaryo bo'limida 1874-yil 21-mayda Turkiston general gubernatori tomonidan tayyorlangan vaqtinchalik "Nizom" loyihasi asosida ish olib borilgan, yer ishlari olib borilgan. Farg'ona viloyatida ma'muriy boshqaruv yer va soliq ishlari esa 1867-yilda "Nizom" loyihasi asosida olib borilgan. F. K. Girs o'zining olib borgan taftish ishlari natijasida taklif qilgan tavsiyalarida Turkistonga "Uyezd boshliqlarini harbiylardan emas balki fuqarolardan ham saylash mumkin" deydi, Uning ta'kidlashicha "Uyezd boshliqlaridan ko'pchiligi ishlari tilida faqat harbiy sohani

bilganlari uchun ularning ma'muriy va siyosiy faoliyat yuritishga qobiliyatlari yetmagan". Turkiston o'lkasi boshqaruvi bo'yicha navbatdagi "Nizom" loyihasi 1886-yil 12-iyun qabul qilinadi[44]. 1886-yilgi "Nizom" bo'yicha Turkiston o'lkasi uchta Kozalinisk, Perovsk, Chimkent, Avliyota, Toshkent uyezdlari va Amudaryo bo'limlaridan iborat Sirdaryo viloyati; Qo'qon, Marg'ilon Andijon, Namangan va O'sh uyezdlaridan iborat Farg'ona viloyati; Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax uyezdlaridan iborat Samarqand viloyatlari bo'lgan. Ushbu "Nizom" ning oldiga o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri bu o'lkada yerga egalik qilish va foydalanish ishlarini imperiya manfaatlariga bo'ysindirish bo'lgan. Xususan, o'troq aholiga yerlar muddatsiz ravishda ijaraga berilgan. Har bir dehqonga mustamlakachi hukumat tomonidan hujjat berilgan. Xar bir hujjatda har bir dehqon yerdan foydalanayotganligi uchun davlatga qancha soliq (renta) to'lashi ham ko'rsatilgan. 1886-yilgi "Nizom" loyihasi bo'yicha uyezdlar uchastkalarga bo'linib, ularni uchastka pristavkalari boshqargan.

Turkiston o'lkasi boshqaruvi bo'yicha 1886-yilgi "Nizom" loyihasi joriy qilingandan keyingi yillarda loyihaga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan. Turkiston o'lkasida tashkil qilingan har bir ma'muriy-hududiy birliklarda o'ziga xos ravishda boshqaruv tartiblari joriy qilib borilgan. Bunda ularning o'ziga xos hududiy joylashuvi iqtisodiy, harbiy-strategik maqsadlar, milliy va etik tartibi hisobga olinadi. Shu bilan birga "ularning boshqaruvida davlat tomonidan sarflangan mablag'larni minimum darajaga yetkazish inobatga olingan" [45].

Turkiston o'lkasida ma'muriy boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar natijasida O'rta Osiyoda asrlar davomida shakllanib kelgan, o'troq ko'chmanchi aholining diniy va mahalliy xususiyatlarini namoyon qilgan boshqaruv tizimi o'rniga imperiya tartiblari mahalliy an'analarga mos kelmagan. Ma'muriy-hududiy bo'limning sohasidagi tartiblar ko'chmanchi aholining urug'chilik munosabatlarini buzib yuborgan. Urug'lar ma'muriy birlashmalarga yangi ovul volostlarga birlashtirilgan. Quyi boshqaruv tizimlariga qozilik sudi, soliq tizimlarida jiddiy o'zgartirishlar kiritilmagan. Bunga sabab mazkur sohalaridagi keskin o'zgarishlar yerlik aholining noroziliklarni keltirib chiqarish va o'lkada imperiya hukumatining hukmronligiga ziyon yetkazilishidan xavfsirash bo'lgan. Shuning uchun ham o'lkaga yuborilgan ko'plab turli soha vakillari, o'lkada ish olib borayotgan mustamlakachi hukumat a'zolari o'lkasi ma'muriyatining rasmiy hisobotlari, o'tkazilgan taftishlar boshqaruv sohasiga oid takliflar, fikr-mulohazalari inobatga olingan. Jumladan, bu borada Farg'ona viloyati harbiy gubernatori D.M.Skobelevning boshqaruv sohasi bo'yicha "Hech nimani tavakkal qilmasdan, maqsad sari reja asosida tartibli borish kerak"[46]. degan fikrini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Mustamlakachi hukumat yerlik aholi vakillari ishtirok etadigan boshqaruv tizim quyi bo'g'imini joriy qilishda juda ehtiyotkorlik va ayyorlik bilan ish olib borgan. Joriy qilingan mahalliy boshqaruv tizimida yerlik aholiga bir qancha yon berishlar evaziga o'lkani nazorat qilish va boshqaruvni o'z qo'lga olishga harakat qilingan. Turkistonda imperiyaning ma'muriy jarayonlaridagi mavjud qishloq jamoalari singari foydalanmoqchi bo'ldi, ya'ni ularni xo'jalik jamoa boshqaruvi tipiga aylantirishga harakat qildi. Rossiya imperiyasi o'lkani kuch bilan bosib olgandan so'ng, bu hududlarda yuritgan siyosati bo'yicha V.V. Bartold (1868-1930) "Rus hukumati Turkistonda o'z siyosatini zudlik bilan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsada, biroq yuqori madaniyatga erishgan, aholisi zich Turkistonni Sibir o'lkasi kabi shunchaki bosib olish mumkin emas edi"[47] deb e'tirof qiladi.

Mahalliy boshqaruv lavozimlariga saylov tartiblari joriy qilinib, saylangan shaxs jamoani boshqarish huquqiga ega bo'lgan. Avval ham aytib o'tilgandek, mustamlakachi hukumatning

bunday tartibdagi boshqaruv tizimini joriy qilishdan asosiy maqsad o'lkada boshqaruvini markaziy guberniyalar boshqaruv tartiblariga yaqinlashtirish bo'lgan. Turkiston o'lkasining ma'muriy bo'limlari va uni boshqarish bo'yicha olib borilgan siyosat natijasida ko'plab salbiy holatlar vujudga keldi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasining "Buyuk Petr davrida asos solingan katta istilochilik rejalari" ga ko'ra O'rta Osiyoning katta qismi Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgan[48].

Xulosa qilib aytilganda, Turkiston o'lkasi podsho tomonidan bosib olingan o'lkada mustamlakachilikka asoslangan boshqaruv tizimi o'rnatildi. Rossiya imperiyasi ma'muriy-siyosiy tizimining Turkiston o'lkasi hududida joriy qilinganki murakkab va ziddiyatli ravishda kechdi. Turkiston o'lkasi general gubernatorligi va Sankt-Peterburgning oliy siyosiy doiralari tomonidan ishlab chiqilgan turli qonun ko'rinishlariga ega bo'lmagan "Nizom" loyihalarida, nihoyat, 1886-yil qonun ko'rinishidagi "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom" loyihasida o'lkani boshqarish tartiblari ko'rsatilgan, "Nizom" loyihasiga ko'ra, o'lkada hokimiyati "harbiy-hayot boshqaruvi" deb nomlangan. Turkiston general-gubernatorligi hududi viloyatlar (oblastlar), uyezdlar, bo'limlar (uchastkalar), volostlar, oqsoqolliklar va ovullarga bo'linardi. O'rta Osiyo hokimliklari bilan chegaradosh hududlarda esa uyezdlar o'rniga harbiy-hududiy birliklar – okrug bo'limlari va rayonlar tashkil etilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bu hududda amalga oshirilgan boshqaruv islohotlarining asosiy maqsadi imperiya hukmronligini mustahkamlash, o'lkada boshqaruvini markazga yaqinlashtirish, zarur mablag' evaziga ko'proq foyda olish, mustamlakachilarning manfaatlarini himoya qilish va hududdan kelajakda iqtisodiy, siyosiy hamda harbiy yo'nalishlarda foydalanishga zamin yaratish bo'lgan.

Umuman olganda, podsho Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasida olib borilgan ma'muriy-hududiy bo'linish siyosati harbiy-byurokratik tusga ega bo'lib, u Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qilgan va butun imperiya miqyosidagi rejalar doirasida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, bu islohotlarda o'lkaning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va milliy xususiyatlari qisman hisobga olingan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Фомченко А.П. Русские населения в Туркестанском. /края в конце XIX - начале XX вв. (Социально-экономический аспект) Т. : "Фан", 1983. – С 34. (Fomchenko A.P. Russian population in Turkestan. /edges in the late XIX - early XX centuries. (Socio-economic aspect). – Т.: "FAN", 1983. – P. 34.)
2. Духовский С.М. Всеподданнейшей доклад Туркестанского генерал-губернатора генерала от инфантерин Духовского //Ислам в Туркестана. – Т. : 1899. – С.9. (Dukhovsky S.M. The all-depth report of the Turkestan Governor General General from Infanterin Dukhovsky // Islam in Turkestan. – Т.: 1899. – P.9.)
3. Ахмеджанов Г.А. Россия империяси Марказий Осиёда. Т.: Ў.А.Б.Н.Т. Маркази. 2003. – Б. 11. (Akhmedjanov G.A. The Russian Empire is in Central Asia. Т.: O.A.B.N.T. Center. 2003. – P. 11.)
4. Глушенко Е.О. Герои империи. Портреты колониальных деятелей. -М.: XXI век – Согласие. 2000. – С. 400-410. (Glushenko E.O. Heroes of the empire. Portraits of colonial figures. -М.: XXI century -consent. 2000. – P. 400-410.)
5. ЎЗР МА.И-1 жамғарма, 25-рўйхат, 26-иш, 2-варақ.(UzR NA.I-1 fund, list 25, case 26, sheet 2.)

6. Отчет состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частек. Ч.1. Администранная. Управление краем: Ч.2. – Суд. Финансы. -СПБ.: Б.4, 1888. – С.2. (The report of the Turkestan Territory, compiled by a senator, secret adviser to Girs, sent to the revision of the region for the highest command. In 2 often. Part 1. Administrative. Office of the region: Part 2. - Court. Finance. -SPB: B.4, 1888. – P.2.)
7. ЎзР МА.И-1 жамғарма, 25-рўйхат, 26-иш, 2-варақ. (UzR NA.I-1 fund, list 25, case 26, sheet 2.)
8. Польное собранные законов Российской империи. 1865. СПб. 1867. – С. 880. (Polish collected laws of the Russian Empire. 1865. St. Petersburg. 1867. – P. 880.)
9. Польное собранные законов Российской империи. 1865. СПб. 1867. – С. 881. (Polish collected laws of the Russian Empire. 1865. St. Petersburg. 1867. – P. 881.)
10. Польное собранные законов Российской империи. 1865. СПб. 1867. – С. 881. (Polish collected laws of the Russian Empire. 1865. St. Petersburg. 1867. – P. 881.)
11. ЎзР МА.И-1 жамғарма, 25-рўйхат, 26-иш, 8-варақ. (UzR NA.I-1 fund, list 25, case 26, sheet 8.)
12. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. /Соч. В. 9 томах. М.: Наука 1963. I.II Ч.1. – С. 353. (Bartold V.V. The history of the cultural life of Turkestan. /Op. V. 9 Tomomas. M.: Science 1963. I.II part 1. – P. 353.)
13. Духовский С.М. Всеподданнейшей доклад Туркестанского генерал-губернатора генерала от инфантерин Духовского //Ислам в Туркестана. Т. : 1899. – С.16. (Dukhovsky S.M. The all-depth report of the Turkestan Governor General General from Infanterin Dukhovsky // Islam in Turkestan. T.: 1899. – P.16.)
14. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. /Соч. В. 9 томах. М.: Наука 1963. I.II Ч.1. – С. 357. (Bartold V.V. The history of the cultural life of Turkestan. /Op. V. 9 Tomomas. M.: Science 1963. I.II part 1. – P. 357.)
15. ЎзР МА.И-1 жамғарма, 7-рўйхат, 16-иш, 34-варақ. (UzR NA.I-1 fund, list 7, case 16, sheet 34.)
16. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. /Соч. В. 9 томах. М.: Наука 1963. I.II Ч.1. – С. 357. (Bartold V.V. The history of the cultural life of Turkestan. /Op. V. 9 Tomomas. M.: Science 1963. I.II part 1. – P. 357.)
17. ЎзР МА.И-1 жамғарма, 7-рўйхат, 16-иш, 23-варақ. (UzR NA.I-1 fund, list 7, case 16, sheet 34.)
18. 1882 йилда Еттисув вилояти янги ташкил қилинган Дашт генерал-губернаторлигига ўтказилади. 1899 йилда Туркистон генерал-губернаторлигига қайта қўшилади. (In 1882, Ettisuv region was transferred to the newly established Dasht General Governorate. In 1899, he rejoined the Turkestan Governor General.)
19. Положение об управлении Семиреченской и Сырдарьинской области. 11 июль 1867 СПб, 1867. – С.1. (Regulation on the management of the Semirechenskaya and Syrdarya region. July 11, 1867 St. Petersburg, 1867. – P.1.)
20. Положение об управлении Семиреченской и Сырдарьинской области. 11 июль 1867 СПб, 1867. – С.2. (Regulation on the management of the Semirechenskaya and Syrdarya region. July 11, 1867 St. Petersburg, 1867. – P.2.)
21. Мил – миля (лотинча milia passum – қўш қадам) Эски рус узунлик ўлчови бирлиги. 1 миля 7.467 км (7467,6 м) халқаро бирликлар тизими СИга кирмаган узунлик ўлчов бирлиги. 1 эски рус миляси 4.038 денгиз миляси – 4.669 қуруқлик миляси./ ЎзМЭ- 5-жилд. Т.:2003. 668-669 бетлар. (Mile - mile (Latin milia passum - double step) Old Russian unit of length measurement. 1 mile 7,467 km (7,467.6 m) is a non-SI unit of length. 1 old Russian mile is 4,038 sea miles - 4,669 land miles./ UzME- Volume 5. T.: 2003. Pages 668-669.)

22. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. С картами в планами. Т.т1-3.-СПб., 1906. – С.266. (Terentyev M.A. The story of the conquest of Central Asia. With cards in plans. TT1-3.-spb., 1906. – P.266.)
23. Отчет состояний Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частек. Ч.1. Администранная. Управление краем: Ч.2. – Суд. Финансы. -СПБ.: Б.4, 1888. – С.8. (The report of the Turkestan Territory, compiled by a senator, secret adviser to Girs, sent to the revision of the region for the highest command. In 2 often. Part 1. Administrative. Office of the region: Part 2. - Court. Finance. -SPB: B.4, 1888. – P.8.)
24. Верст-верста қадимги рус узунлик ўлчов бирлиги. 1 верст – 500 сажен, яъни 1.066 км га тенг. / ЎЗМЭ- 2-жилд. Т.:2001. 435 бетлар. (Verst-versta is an old Russian unit of length. 1 verst is 500 sagens, which is equal to 1,066 km. / O'zME- Volume 2. T.: 2001. 435 pages.)
25. Отчет состояний Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частек. Ч.1. Администранная. Управление краем: Ч.2. – Суд. Финансы. -СПБ.: Б.4, 1888. – С.22. (The report of the Turkestan Territory, compiled by a senator, secret adviser to Girs, sent to the audit of the region for the highest command. In 2 often. Part 1. Administrative. Office of the region: Part 2. - Court. Finance. -SPB: B.4, 1888. – P.22.)
26. ЎЗР МА.И-1 жамғарма, 7-рўйхат, 16-иш, 15-варақ. (UzR NA.I-1 fund, list 7, case 16, sheet 15.)
27. ЎЗР МА.И-276 жамғарма, 4-рўйхат, 18-иш, 2-варақ. (UzR NA.I-276 fund, list 4, case 18, sheet 2.)
28. Люди и порядки за Уралом// Азиатская Россия. В трех томах. СПб.: Изд. Переселенского управления Главного управления землеустройства и земледелия. 1914. – С.59. (People and orders for the Urals // Asian Russia. In three volumes. St. Petersburg: ed. Migrant Office of the Main Directorate of Land Management and Agriculture. 1914. – P.59.)
29. ЎЗР МА.И-1 жамғарма, 7-рўйхат, 16-иш, 16-варақ. (UzR NA.I-1 fund, list 7, case 16, sheet 16.)
30. Масальский В.И. Туркестанский край – СПб, 1913, - С.344. (Masalsky V.I. Turkestan Territory - St. Petersburg, 1913, p. 344.)
31. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенный по высочайшему повелению сенатором, гофменстером графом. К.К. Паленом. Высп. I-XVIII – СПб.: Б.И, 1910. – С.8. (Report on the revision of the Turkestan Territory, made at the highest command of the senator, Hoffkement Count. K.K. Palen. Solder. I-XVIII-St. Petersburg: B.I., 1910. – P. 8.)
32. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. С картами в планами. Т.т1-3.-СПб., 1906. – С.266. (Terentyev M.A. The story of the conquest of Central Asia. With cards in plans. TT1-3.-spb., 1906. – P.266.)
33. Отчет состояний Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частек. Ч.1. Администранная. Управление краем: Ч.2. – Суд. Финансы. -СПБ.: Б.4, 1888. – С.4. (The state of the Turkestan Territory, compiled by a senator, secret adviser to Girs, sent to the audit of the region for the highest command. In 2 often. Part 1. Administrative. Office of the region: Part 2. - Court. Finance. -SPB: B.4, 1888. – P.4.)
34. Отчет состояний Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему

- повелению. В 2-х частек. Ч.1. Администранная. Управление краем: Ч.2. – Суд. Финансы. -СПБ.: Б.4, 1888. – С.4. (The state of the Turkestan Territory, compiled by a senator, secret adviser Girs, sent to the audit of the region for the highest command. In 2 often. Part 1. Administrative. Office of the region: Part 2. – Court. Finance. -SPB: B.4, 1888. – P.4.)
35. ЎзР МА.И-1 жамғарма, 25-рўйхат, 31-иш, 3-варақ орқаси. (35. UzR MA.I-1 fund, list 25, case 31, back of sheet 3.)
 36. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. -СПб., 1913. – С.315. (Terentyev M.A. The story of the conquest of Central Asia. -SPB., 1913. – P.315.)
 37. Ўша жойда (In the same place).
 38. М.Г.Черняевнинг Тошкентга етиб келгунича Туркистон генерал-губернатори вазифасини вақтинча бажариш Абрамовга топширилган. (Abramov was entrusted with temporarily acting as the governor-general of Turkestan until M. G. Chernyaev arrived in Tashkent.)
 39. “Туркестанский курьер” газетаси, 1915 год 25 июнь. (“Turkestansky Kurer” newspaper, June 25, 1915.)
 40. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т: Шарқ. 2000, 182-183 – бетлар. (New history of Uzbekistan. Book 1. Turkestan during the colonial period of Tsarist Russia. – T: East. 2000, pp. 182-183.)
 41. Отчет о состоянии Туркестанского края составленный сенатором, тайным Советником Гирсом командированным для левизкие края по висогайщяму повемнию В.И.Х частех Ч.И. Адменстиратси Управление краем; Ч.||- Суд. Финанси. – СПбб.И.1888. – С.8. (Report on the composition of the Turkestan Territory compiled by a senator, secret adviser to Girs businessmen for the levis regions according to the leapshaft of V.I. Klostekh Ch.I. Admostirates of the regional management; Ch. ||- Court. Finances. -SPbb.I.1888. – P.8.)
 42. Ўша жойда - С.1. (In the same place – P.1.)
 43. Ўша жойда - С.4.(In the same place – P.4.)
 44. Положение об управление Туркистонского края. СПб.1886. – С.1 (Regulation on the Office of the Turkiston Territory. St. Petersburg 1886. – P.1)
 45. Кипякина А.С.Блиев М.М. Дегоев В.В.Коавкази Средняя Азии во внешней политика России (во второй половине XVIII – 80 -годи XIXв/. М:Науки 1924. – С.289 (Kipyakina A.S. Bliev M.M. Degoev V.V. Koavkazi Middle Asia in the foreign policy of Russia (the second half of the KhVIII - 80 years of the KhIKsv /. M: Nauki 1924. – P.289)
 46. Телентьев М.А. История завоевания Средняя Азия.СПб 1906. – С.42 (Telentiev M.A. The history of the conquest of Central Asia. St. Petersburg 1906. – P.42)
 47. Бартольд В.В. История культурный жизни Туркистана – Л:Изд. СССР,1927 – С.263 (Bartold V.V. The history of the cultural life of Turkistan - L: Ed. USSR, 1927 – P.263)
 48. Бартольд В.В Кавказ Туркистан, Волга , Тифлис.1926. – С.8 (Bartold V.V. Caucasus Turkistan, Volga, Tiflis.1926. – P.8).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).